

YOSHLARNI MA'NAVIIY-MA'RIFIY JIHATDAN SHAKLLANTIRISHDA VA HUQUQIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA TARIX FANINING TUTGAN O'RNI

Kodirova N. SH.

O'zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti
2-bosqich magistranti

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishni milliy g'oya sifatida tanlab olgan. Bu maqsadni amalga oshirishda, albatta, mamlakatimiz yoshlari yurt tayanchi bo'lib xizmat qilishadi. Bu o'rinda gap hozirgi kunda jami aholimizning 64 foizdan ortig'ini tashkil etadigan yoshlar haqida, tahlil-tarbiya va professional tayyorgarlik darajasi bizning kelajagimizni, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal etadigan yoshlar haqida, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashga layoqatli, mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo'yicha belgilab olgan yuksak maqsadlarimizga erishish yo'lida tom mahnoda hal qiluvchi kuch, tayanch va suyanch bo'lishga qodir yoshlar haqida bormoqda.

Darhaqiqat, yoshlar mamlakat kelajagini belgilay olishadi. Hayotning o'zgarib boruvchi sharoitlari yosh insonlarni yangi realliklarga moslashishga, o'zining hayotiy nuqtai nazarini ishlab chiqishga, kelajak rejalarini qurishga undamoqda. Bugungi kunda O'zbekiston jamiyati oldida quyidagi vazifa turibdi: puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan yoshlar siyosati vositasida yoshlarning bilimlari, qobiliyatlari va sahy-harakatlaridan foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O'zbekiston ravnaq topishida o'zining ijtimoiy manfaatlarini, ehtiyojlarini, hayotiy istiqbollari belgilab olish va ro'yobga chiqarish¹. O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda, yoshlarni tarbiyalash, sog'lom qilib o'stirish, ularning ongini o'tmish tahsiridan ozod ravishda shakllantirish mustaqil mamlakatning dolzarb vazifalaridandir².

Mustaqillik tufayli yangicha boshlangan davlat qurilishi o'lkamizda nafaqat umuminsoniy qadriyatlar va siyosiy-huquqiy tahlimotlar, balki o'zimizning juda boy o'tmish tajribamiz asosida to'plangan noyob g'oyaviy merosimizga suyangan holda amalga oshirilmog'i lozim. Bu borada, albatta, tarix fanining tutgan o'rni beqiyosdir. Tarix insoniyat o'tmishi rivojlanishining aniq va xilma-xilligini o'rganib, uning hozirgi va kelajak istiqbolini aniq tushunish maqsadidagi fandır. Tarix ijtimoiy

¹ Ўзбекистон ёшлари: ижтимоий қиёфа / Р.А. Убайдуллаева таҳрири остида. –Т., 2008. –5-бет.

² Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат // муаллифлар: М. Абдуллаев, М. Абдуллаева ва бошқ.; Р.Рўзиев ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. –Т.: “Шарқ”, 2009. –300-бет.



fanlar sohasiga kirib, insoniyat jamiyatidagi muhim jihatlari — talab va o'z-o'zini anglashida yetakchi shakllardan biri hisoblanadi. Qachon, qaerda, qanday sababga ko'ra qanday voqea, hodisa yuz bergan, oqibati nima bilan yakunlangan, uning bizga, hozirgi zamonga qanday daxli, ahamiyati bor singari savollar zanjiriga javob topish orqali biz tarixdan saboq olamiz, uni anglaymiz, ijobiy iftixor baxsh etadiganlaridan g'ururlanamiz³. Mahnaviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga albatta, tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson.

Tarix fani, avvalo, bizni o'tmishdagi xatolarni qaytarmaslikka o'rgatadi. Kechagi xatolarni qaytarmaslik esa bu olg'a tashlangan muhim qadamdir.

Ikkinchidan, milliy tarix o'zining barcha ibratli namunalari bilan milliy mafkuraning muhim tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Chunki buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat namunasi, ularni mahnaviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash manbai hisoblanadi. Xolisona yoritilajak tarix millatning murabbiysiga aylanishi lozim.

Uchinchidan, va, eng asosiysi, o'z o'tmishini bilmagan millat milliy g'urur hissini yaxshi bilmaydi, boshqa millatlar va, ayniqsa, hozirgi zamonning rivojlangan millatlari tili, adabiyoti, madaniyatiga sajda qiladi, shu tariqa o'zini kamsitadi. Millatning tarixiy xotirasi qanchalik boy, mazmunli va uzviy bog'langan bo'lsa, bu millat shunchalik uyushgan, tadbirkor, harakatchan, hamjihat bo'ladi, o'z ajdodlari va avlodlarining shahniga yarashadigan xizmatlarni, ishlarni bajarishga intiladi.

Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'llarimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy anhanalarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbir etmog'imiz kerak.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shuni qayd etib o'tish joizki, tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Zotan, tarix – xalq mahnaviyatining asosidir⁴.

³ Раҳимбердиева М. Миллий ўзликни англашда тарих фанининг аҳамияти // “Оила маънавияти – жамият тараққийнинг таянчи” мавзусида 2012 йил 18—19 май кунлари ўтказилган Республика илмий-назарий, услубий-амалий конференция материаллари. –Т., 2012. –78-бет.

⁴ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: “Шарк”, 1998. –12-бет.

